

7-10-2019

## THE STAGE OF IMPROVING THE SYSTEM AND CONTENT OF CANDIDATE SELECTION FOR BELT WRESTLING.

Nuriddin Rukhiddinov Goziyev  
*Namangan State University*

Abdulaziz Usubjon ugli Khamiddjanov  
*Namangan State University*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Goziyev, Nuriddin Rukhiddinov and Khamiddjanov, Abdulaziz Usubjon ugli (2019) "THE STAGE OF IMPROVING THE SYSTEM AND CONTENT OF CANDIDATE SELECTION FOR BELT WRESTLING.," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 54.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/54>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

---

**THE STAGE OF IMPROVING THE SYSTEM AND CONTENT OF CANDIDATE  
SELECTION FOR BELT WRESTLING.**

**Cover Page Footnote**

???????

**Erratum**

???????

## **BELBOG'LI KURASH SPORT TURIGA BOLALARNI SARALASH TIZIMI VA MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHI**

G'oziyev Nuriddin Ruhiddinovich, Hamidjonov Abdulaziz Usubjon o'g'li

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Belbog'li kurash sport turiga boshlang'ich va o'quv mashg'ulotlar guruhlariga bolalarni saralashda ularni qobiliyatlarini va iqtidorlarini aniqlash tizimi va mazmunini, hamda saralashning ikkinchi bosqichini maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirish zarurligi haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Milliy qadriyatlar, belbo'g'li kurash, saralash tizimi, o'quv mashg'ulot, mashg'ulotlar jarayoni, psixologik tayyorgarlik, musobaqa faoliyati, o'quv mashg'ulot guruhi.*

## **THE STAGE OF IMPROVING THE SYSTEM AND CONTENT OF CANDIDATE SELECTION FOR BELT WRESTLING.**

Goziyev Nuriddin Rukhiddinovich, Khamiddjanov Abdulaziz Usubjon ugli

***Abstract:** this article provides information on the system and content of identifying the abilities and abilities of children in the selection of primary and educational classes in the sport of Belt Wrestling, as well as the need to carry out the second stage of selection in preschool institutions.*

***Keywords:** national values, belt struggle, qualifying system, training, training process, psychological preparation, competition activities, training group.*

## **ЭТАП СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОТБОРА И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ДЕТЕЙ В СПОРТЕ ПО БОРЬБЕ НА ПОЯСАХ**

Газиёв Нуриддин Рухиддинович, Хамиджонов Абдулазиз Усубжон угли

***Аннотация:** В данной статье представлена информация о системе и содержании выявления способностей детей при отборе в группы начальных и учебных занятий по поясной борьбе, а также о необходимости проведения второго этапа отбора в дошкольные образовательные учреждения.*

***Ключевые слова:** национальные ценности, борьба на поясах, квалификационная система, учебный процесс, тренировочный процесс, психологическая подготовка, соревновательная деятельность, тренировочная группа.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach milliy qadriyatlarni e'zozlash orqali yoshlar qalbida vatanga muhabbat ruxini kuchaytirishga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Aholi, ayniqsa o'quvchi yoshlarning madaniy va ma'rifiy tushunchalarini yanada rivojlantirish, ularni jismoniy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash eng oldingi vazifalardan biri etib belgilandi. [1].

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qayta ko'rib chiqilib, 2000 yil va 2015 yillarda yangi tahrirda qabul qilindi. Bunda o'quvchi

yoshlarni jismonan tarbiyalash, iqtidorli sportchilarning mahoratini oshirish, xalqaro maydonlarda nufuzli sport natijalariga erishish imkoniyatlarini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. [2].

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, qadriyatlarimiz, shu jumladan milliy sport turlari va xalq o'yinlari qayta tiklanmoqda. Yakkama-yakka kurash turlari orasida ayniqsa, belbog'li kurash o'zining nozik jixatlari bilan ajrab turadi.

Belbog'li kurashning ilmiy asoslangan amaliy-uslubiy nazariyasini barcha qit'alardagi kurashchilarga to'laqonli yetkazish, bu sport turning rivojlanishini taminlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqdaki, dunyoning sport siyosatida belbog'li kurash jahon xalqlariga O'zbekiston taqdim etgan adolatli, insonparvar sport turlaridan biri bo'lib rivojlanib bormoqda.

Belbog'li kurashning xalqaro maydonda rivojlanishiga hissa qo'shish hamda shug'ullanuvchi sportchilarning har tomonlama ma'naviy, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, egallayotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida, bugungi kunda murabbiylar hamda sportchilar uchun o'quv qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, ilmiy asoslangan darsliklar yaratilmoqda. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida "Belbog'li kurash sport turiga bolalarni saralash tizimi va mazmunini takomillashtirish" mavzusida malumotlar yetarli emasligi, ammo ushbu mavzu barcha sport turilari oldida turgan dolzarb mavzulardan bo'lib qolmoqda. [3].

Belbog'li kurash sport turiga saralashning dastlabki bosqichi albatta maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirilasa, ikkinchi bosqichi albatta anashu birinchi boshlang'ich tayyorgarlik guruhini yakunlagan kurashchilardan, O'quv mashg'uloti guruhiga saralanadi. O'quv mashg'ulot guruhiga saralashda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi va bolalar va o'smirlar sport maktabi ustavida ko'rsatgan me'yorlar asosida saralab olinadi. Bu bizni anashu saralangan o'quvchilarni barchasidan yuqori natija olish uchun yetarli emas, chunki saralashda faqat ko'rsatgan natijalari va erishgan natijalarini hisobga olgan holda o'quv mashg'ulot guruhiga o'tkaziladi. Biz o'quv mashg'ulot guruhiga saralashda quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshirishim lozim. [4.5].

**"Belbog'li kurash sport turiga bolalarni saralash tizimi va mazmunini takomillashtirish" ni bosqichma-bosqich amalga oshirish.**

(1-jadval)

N	Boshlang'ich tayyorgarlik guruhiga o'quvchilarni saralash	O'quv mashg'ulot guruhiga kurashchilarni saralash	Kutilayotgan natija
1	Boshlang'ich tayyorgarlik guriga qabul qilinuvchi o'quvchilarning yoshi va jinsiga mos, kurash sport turiga oid, qobiliyatlarni mavjudligi	O'quv mashg'ulot tayyorgarlik guruhida kurashchilar ko'rsatgan natijalari yoshi va jinsiga mosligi, kurash sport turiga oid qobiliyatlarni qay darajada	Egallagan texnik va taktik mahoratini keyingi saralash bosqichlarida, sport musobaqalarida

		rivojlanganligi	yuksak natijalarga erishish
2	BTG ga saralanayotgan o'quvchilarning individual imkoniyatlari, kurash sport turiga oid umumiy jismoniy tayyorgarligi yaxshi rivojlanganligi;	Kurashchilarni O'MG saralanayotgan kurashchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari bir-biriga mos rivojlanganligi	Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini inobatga qulay texnik va taktik bilimlarini ixtisoslashtirish
3	BTG saralanayotgan, o'quvchini xarakter va temperamantini kurash turiga mos kelishi	O'MG saralanotgan kurashchilarni harakteridagi va temperamentidagi o'zgarishlar yuksak natijalarga erishgan kurashchilarni hislatlarini nomoyon bo'lishi	Musobaqa va mashg'ulot jarayonida o'zini yaxshi tutishi, axloqiy tarbiyasini yaxshilanishi
4	BTG saralanotgan o'quvchilarning antropometrik ko'rsatkichlari, gavda o'lchamlarini kurash sport turiga mos kelishi	O'MG saralanotgan kurashchilarni antropometrik ko'rsatkichlari, gavda o'lchamlari egallagan texnik va taktik mahoratiga mos kelishi	Egallangan texnika va taktik mahoratini turli musobaqa vaziyatlarida nomoyish qila olishi

Yuqorida ko'rsatilgan (1-jadval) dagi ma'lumotlar bizni qoleversa Platonov o'z adabiyotlarda keltirishicha, mazkur g'oyalar uzoq muddatli tayyorgarlik istiqbolli dasturini ishlab chiqishda o'z samarasini beradi. [6].

Tayyorgarlik jarayoniga kurashchilarni saralash tizimi, kurashchilar faoliyatini takomillashtirish, yuqori yutuqlarga erishishni ta'minlovchi maqsadli tayyorgarlikni rivojlantirishdir.

Mashg'ulotlar jarayonida saralash tizimi bu kurashchilar qobilyatlari va imkoniyatlarini aniqlash aniqlab beradi, sport mashg'ulotlari (qonuniyatlar, omillar, holatlar, vosita va usullar va h.k. hamda mashg'ulot va musobaqadan tashqari (maxsus anjom, uskuna va mashg'ulotlar, qayta tiklanishi vositalari, iqlim omillari va boshqalar) omillarni hisobga olgan holda tuzib chiqiladi. Bir tomondan, bu sport mashg'uloti jarayonida saralashni olib borish jarayoni o'ta murakkabligini, ikkinchi tomondan, amalga oshirilgan yechimlarning asoslangan holda uning katta samaradorligini belgilaydi. Kurash sport turiga saralangan kurashchilar mashg'ulotlari tasirini aniqlash, murabbiy va

sportchining faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi va uch guruh amaliyotlarni o'z ichiga oladi:

- sportchilarning holati to'g'risida axborot yig'ish, bularga jismoniy, texnik-taktik, psixologik tayyorgarlik, turli funktsional tizimlarning mashg'ulot va bellashuv vazifasiga ta'sirchanligi, musobaqa faoliyatining ko'rsat-kichlari o'rganib taxlil qilish;

- ushbu axborotlarni haqiqiy va berilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirish asosida tahlil qilish, ko'zlangan samaraga erishishni ta'minlovchi mashg'ulot hamda bellashuv faoliyati tasniflarini rejalashtirish va aniqlashtirish;

- mashg'ulot va bellashuv faoliyatidan ko'zlangan samaraga erishishni ta'minlash, maqsad vazifalari, reja va dasturlari, vosita va usullarni ishlab chiqarish hamda joriy etish yo'li bilan qabul qilish.

Kurash sport turiga saralash tizimini asosi bo'lib, kurashchining turli va doimo o'zgaruvchan imkoniyatlari, uning funktsional holatining o'zgarishi, hamda sportchidan murabbiyga keladigan axborotlar orqali saralashni qaydarajada to'g'ri amalga oshirilganligini bilib olinadi. Sport turlariga o'quvchilarni saralashni, agarda biz tog'ri yo'lga qo'ya olsak, biz albatta yuqori natijalarga erishamiz. Mamlakatimizda saralash tizimi yo'lga qo'yilgan sport turlari boks, erkin va yunon rum kurashi sport turlaridan sportchilarimiz mamalakatimizni bugun butun dunyoga tanitmoqda. To'g'ri va oqilona saralash bu bizni ertangi kelajagimiz va yuqori natijalarimizdir.

#### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" gi farmonini Toshkent shahri, 2018-yil 5-mart.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati, Toshkent "O'z DJTI" nashriyoti-matbaa bo'limi 2001-yil.
3. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, Toshkent "Zar qalam" nashriyoti 2004-yil.
4. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari "O'z DJTI" nashriyoti-matbaa bo'limi Toshkent 2005-yil
5. Xalmuxamedov R.D. Shin V.N. Abdurasulova G.B.Tajibayev S.S. Yosh yakkakurashchilar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining turli bosqichlarida saralashning me'yorlari.
6. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish F.A.Kerimov, M.N. Umarov, 2005 yil Toshkent.